

## YANGI DAVR O'ZLASHMALARIDA TRANSFORMATSION DARAJALANISH

**Otabek Ulashevich SHUKUROV**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Qarshi davlat universiteti doktoranti  
Qarshi, O'zbekiston

## ТРАНСФОРМАЦИОННАЯ ГРАДУАЛЬНОСТЬ В ЗАИМСТВОВАНИЯХ НОВОГО ПЕРИОДА

**Отабек Улашевич ШУКУРОВ**

Кандидат филологических наук, доцент, докторант  
Каршинский государственный университет  
Карши, Узбекистан

## TRANSFORMATIONAL GRADUALITY IN MODERN BORROWINGS

**Otabek Ulashevich SHUKUROV**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Doctoral Student  
Karshi State University  
Karshi, Uzbekistan [otabekshukurov1@mail.ru](mailto:otabekshukurov1@mail.ru)

UDC (УЎК, УДК): 811.512.133

### Иқтибос келтириш учун (For citation, для цитирования):

Shukurov O.U. Yangi davr o'zlashmalarida  
transformatsion darajalanish// O'zbekistonda  
xorijiy tillar — 2022. — No.2 (43). — B. 48-60.

<https://doi.org/10.36078/1652710255>

**Received:** February 20, 2022

**Accepted:** April 17, 2022

**Published:** April 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s) and Scientific  
Research Publishing Inc.

This work is licensed under the Creative  
Commons Attribution International License  
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotatsiya.** Maqola mustaqillik davri o'zlashmalarining transformatsion darajalanishini tavsifiy metodda tadqiq etishga bag'ishlangan. Unda o'zlashmalar asos ma'noda qo'llanuvchi leksemalar, asos ma'nosi qisman o'zgargan leksemalar hamda asos ma'nodan uzilgan leksemalar ko'rinishida tasniflandi. Buning uchun manba tildagi so'zning etimologik ma'nosi va o'zlashmaning qabul qilingan tildagi genetik ma'nosi orasidagi aloqaga asoslanilgan. Maxsus kuzatishlar yangi davr o'zlashmalarining aniq misollari asosida ko'rsatib berilgan. O'rni bilan o'zlashmalarining izohli lug'atda berilishi bo'yicha tavsiyalar ham berilgan. Tahlil jarayonida dominant leksemaning paradigmatic munosabat hosil qiluvchi qurshovlariga alohida mikrosistema sifatida yondashildi. Bundan tashqari, o'zlashmalar hamda semantika bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan tilshunoslarning fikrlariga tayanildi va ularga munosabat bildirildi. Yangi davr o'zlashmalarining manba tildagi asosiga munosabati turlicha ekanligi va ular orasidagi sezilarli o'zgarishlar mazmuniy aspektda ham, shakliy aspektda ham jiddiy ilmiy tadqiqot va maxsus o'rganishlar uchun asos bo'lishi ta'kidlandi. So'nggi yillari paydo bo'layotgan hamda so'zlashuv jarayonida qo'llanilayotgan neologizmlarning ommalashayotgani e'tirof etildi. Ularning bu jarayonda tez ommalashishi adabiy tildan, o'zbek tilining lug'at fondidan munosib o'rin olish ehtimolini oshirishi bilan belgilandi.

**Kalit so'zlar:** o'zlashma so'zlar; leksika; etimologik ma'no; genetik ma'no; semantik; tushuncha.

**Аннотация.** В статье ставится задача изучить трансформационный уровень заимствования периода независимости описательным методом. В нем заимствования классифицируются в виде лексем, употребляемых в основном значении, лексем с частично измененным основным значением и

лексем, оторванных от основного значения. Это основано на связи между этимологическим значением слова в исходном языке и генетическим значением заимствования в языке-реципиенте. Специальные наблюдения сделаны на основе конкретных примеров заимствований нового периода. Также даны рекомендации по интерпретации заимствований в толковом словаре. В процессе анализа доминирующие в тексте лексемы, образующие парадигматические отношения, рассматриваются как отдельная микросистема. Кроме того, были прокомментированы мнения лингвистов, которые проводили исследовательскую работу по заимствованиям и семантике. Отмечено, что отношения заимствований нового периода к основе исходного языка различно, а существенные изменения между ними являются основанием для серьезных научных исследований и специальных исследований вообще как в смысловом аспекте, так и в формальном аспекте. Признано, что неологизмы, возникшие в последние годы и употребляемые в разговорной речи, становятся все более популярными. Их стремительная популярность в этом процессе рассматривалась как увеличение вероятности занять достойное место в литературном языке, в словарном фонде узбекского языка.

**Ключевые слова:** заимствования; лексика; этимологическое значение; генетическое значение; семантический; понятие.

**Abstract.** The article aims to study the transformational level of borrowings of the independence period by a descriptive method. Borrowings are classified as lexemes used in the main meaning, lexemes with a partially changed primary meaning, and lexemes torn off from the central meaning. This is based on the relationship between the etymological meaning of the word in the source language and the genetic meaning of the borrowing in the recipient language. Remarkable observations are made on the basis of specific examples of borrowings from the new period. Recommendations are also given on how to interpret borrowings in the explanatory dictionary. In the process of analysis, the dominant lexemes in the siege, forming paradigmatic relations, are considered a separate microsystem. It is noted that the relationship of borrowings of the new period to the basis of the original language is different, and significant changes between them are the ground for serious scientific research, both in the semantic and formal aspects. It is recognized that neologisms that have emerged in recent years and used in everyday speech are becoming increasingly popular. Their rapid popularity in this process was seen as an increase in the likelihood of taking a worthy place in the vocabulary of the Uzbek language.

**Keywords:** borrowings; lexis; etymological meaning; genetic meaning; semantic; concept.

**Kirish.** O'zlashma so'zlar va ularning semantik xususiyatlarini o'rganish o'ziga xos tarixga ega. Mavzu talqini tilshunoslikning umumiy plani asosida ham, maxsus kuzatishlar dorasida ham tadqiq etilgan.

O'zbek tilshunosligida o'zlashma so'zlar muammolariga e'tibor XX asrning 40-yillaridan boshlangan bo'lsa, bugungi kunga qadar turli tomondan va rang-barang aspektlarda tilshunoslarning tadqiq obyektiga aylandi. Nazariy va amaliy jihatlariga ko'ra umumiylik kasb etgan o'zlashma so'zlar mavzusi o'zining tadrijiy shakllanishi hamda taraqqiyot tendensiyalariga ega. Ular dissertatsiya, monografiya, ilmiy maqola, darslik, o'quv qo'llanma va lug'atlar ko'rinishida shakllandi.

Xususan, soʻz oʻzlashtirish va semantika masalalari F. Abdullaev (1), N. Gulyamova (3), M. Mirtojiyev (6), U. Qoʻziev (7), N. Isakova (4) va boshqalarning ishlarida bosqichma-bosqich oʻrganildi.

Bugungi kunda istiqbol davrida paydo boʻlgan oʻzlashmalar ham salmoqli boʻlib, ularni leksikada tutgan oʻrni, maʼno kengayish hajmi, lugʻatlarda aks ettirish imkoniyati kabi masalalar muhim hisoblanadi. Shular qatorida oʻrganilayotgan mustaqillik davri oʻzlashmalarining transformatsion darajalanish muammosi ham dolzarbdir. Maqolaning umumiy mazmuni aynan shu muammo talqiniga bagʻishlangan.

Manba tildan qabul qiluvchi til leksikasiga soʻz oʻzlashtirilishi murakkab jarayon va odatda, soʻz beruvchi til birligi koʻproq polisemantik xususiyatli birlik boʻladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bunday birliklar oʻz semantik hajmining imkoniyatlarini singayotgan tilda toʻla namoyon eta olmasligi tabiiy hol. Odatda, soʻz beruvchi tildagi birliklarning soʻz oluvchi tilga oʻzlashishi muayyan innovatsiya taʼsirida yoki ijtimoiy zarurat sifatida sodir boʻladi. Taraqqiy etayotgan har qanday jamiyatdagi kishilar ongida zamon va makon taʼsiri oʻlaroq nomlanmagan tushunchalarning haddan ziyod paydo boʻlayotgani ham tabiiy holdir. Leksikada bunday boʻshliqlar — leksik lakunalarning nominatsiyasi jarayoni asosan oʻzlashmalar orqali toʻldirib boriladi.

Muhimi, ularning barchasi neologizmlarning makon va zamon sharoitlariga moslashib tilga singishi, yashab qolishi, muqimlashishi va qayta shakllangan semantik hajmining kengayish imkoniyatlari bilan ham belgilanadi.

Yangi davr oʻzlashmalardagi oʻziga xos oʻzgarishlar soʻz beruvchi va soʻz oʻzlashtiruvchi tillar kesimida qiyoslanganda yaqqol seziladi. Ular orasidagi sezilarli oʻzgarishlar mazmuniy aspektda ham, shakliy aspektda ham jiddiy ilmiy tadqiqot va oʻrganishlar uchun ehtiyoj mavjudligini koʻrsatadi. Xususan, oʻzlashmaning manba tildagi asosiga koʻra semantik aloqadorlikning qanchalik saqlashi jihatidan oʻrganilganda masalaning mohiyati oydinlashadi. Natijada oʻzlashmalarining turli transformatsion darajalanishlar asosida muayyan tasniflarga ajralishi, muayyan mavzuviy guruhlar asosida farqlanishi kuzatiladi. Oʻzlashmalarining shakliy aspektdagi oʻzgarishlari esa alohida va murakkab tadqiqot obyekti boʻlib, bu muammo aynan ularning imloviy va tuzilish jihatidan turlari, omonimligi, paronimligi kabilar atrofida kechishi tabiiy.

Darajalanish jarayoni manba til soʻzining qabul qiluvchi til leksikasida “etimologik maʼnoni saqlay olish imkoniyati” mezonidan kelib chiqib tekshiriladi. Transformatsion darajalanish tasniflari rang-barang boʻlsa ham, tahlilda tartibga solishning sodda imkoniyatlari nuqtai nazaridan ularni *asos maʼnosida qoʻllanuvchi leksemalar*, *asos maʼnosi qisman oʻzgargan leksemalar* hamda *asos maʼnodan uzilgan leksemalar* koʻrinishida farqlab oʻrganish oʻrinli boʻladi.

**Asosiy qism.** Asos maʼnosida qoʻllanuvchi oʻzlashmalarining, oʻzbek tilida monosemantik yoki polisemantik xususiyatga ega boʻlishidan qatʼiy nazar, bosh (toʻgʻri) maʼnosi manba tildagi genetik maʼnosiga analogik holda shakllangan boʻlishi talab etiladi. Biroq bu jarayonda vositachi tilning ham taʼsiri mavjud boʻlib, soʻzning genetik maʼnosi doimo manba til birligiga qarab belgilanadi. Genetik maʼnosi deganda soʻzning bugungi kun lugʻatlarida qoʻllanayotgan maʼnosi nazarda tutilyapti. Biroq bunda soʻzning etimologik maʼnosi aks etishi yoki aks etmasligi qatʼiy belgilanmaydi.

Mustaqillik davri oʻzlashmalarini tavsifiy va komponent tahlil metodlari asosida oʻrganish mavzu mohiyatiga mosdir. Negaki, olinmalar

manba tildan soʻz qabul qiluvchi tilga oʻzlashganda fonetik, leksik-semantik va morfologik sathlar tabiatiga maʼlum darajada moslashadi. Ayniqsa, oʻzlashmalardagi semantik oʻzgarishlarni ularning manba tildagi asosi bilan aloqadorlikda oʻrganish semasiologik tadqiqotlar uchun ahamiyatli natija berishi mumkin.

Leksikadagi asos maʼnosida qoʻllanuvchi leksemalarni ajratish tadqiqotchi uchun murakkab vaziyatni vujudga keltirmaydi. Ularni tekshirish soʻzning etimologik maʼnosi bilan manba til lugʻatidagi denotativ maʼnoga yaqinligi asosida boʻladi. Odatda, asos maʼnoda qoʻllanuvchi leksemalarni, boshqalaridan farqli oʻlaroq, tez va oson farqlab olish tildan foydalanuvchilar uchun yengil kechadi. Aksariyat hollarda ularni etimologik maʼnoga tayanib talqin etish koʻnikmasi ham shakllangan, deyish mumkin. Biroq bunday gipotezalar soʻzning aniq maʼnosi haqida doimo toʻgʻri tasavvur bera oladi deyish qiyin.

Inglizcha *display* (*display* — qayta koʻrsatmoq) soʻzi ingliz tilida ham, oʻzbek tilida ham “kompyuter tizimi yoki boshqa maxsus uskunalar orqali matn, jadval, grafik, rasm, audio, video shaklida uzatiladigan axborotlarni aks ettirishga moʻljallangan ekran” maʼnosini ifodalaydi. Manba tilda “predmet” tushunchasi uning etimologik asosi boʻlgan “harakat” asosida shakllangan. Shuning oʻziyiq leksemani asos maʼnosida qoʻllanuvchi birliklar qatorida turishini koʻrsatadi. Biroq soʻzning derivatsiya jarayonini oʻzbek tilida mavjud *soʻz yasovchi asos — yasovchi vosita — yasalma* (sadoqat + li — sadoqatli) kabi konstruksiyaga qiyoslab boʻlmaydi. Zero, feʼl leksema deb qaraladigan birlikning, kontekst jarayoniga muvofiq, ot leksema sifatida talqin etilishi ingliz tili uchun normal hodisa hisoblanadi.

*Fayl* soʻzining etimologiyasi ingliz tilida *file* — *qogʻozlar tikmasi, kartoteka* tushunchalari asosida boʻlib, lugʻatlarda polisemantik soʻz sifatida izohlangan. Oʻzbek tiliga esa terminlik maʼnosi bilan: “kompyuterda bitta nom ostida saqlanadigan maʼlumot” tushunchasi orqali shakllandi. Keyingi paytlari bu soʻzning “turli hujjatlarni tartibli shaklda saqlashga moʻljallangan ofis jihozi (shaffof polietilen papka)” referenti ham shakllandi, deyish mumkin. Albatta, bu kabi soʻzlarning polisemantik xususiyati yoki maʼno hajmining kengayishi yaratiladigan izohli lugʻatlarda aks etishi lozim.

Masalan, inglizcha *bonus* soʻzi oʻzbek tili soʻzlashuv nutqida *koʻrsatilgan xizmat uchun munosib mukofot, imtiyozli yengillik, qoʻshimcha haq, chegirmali imkoniyat* kabilar atrofida reallashadi. Bu soʻz lotincha *yaxshi, marhamatli* maʼnolarini ifodalasa ham, ingliz tilidagi maʼnolari motivida oʻzlashdi. Uning oʻzbek tilida ifodalanayotgan maʼnolari aynan inglizcha tushunchalarga toʻla mos keladi. Lotin tili bugungi kunda isteʼmoldan chiqqan tillar sirasiga kiradi. Uning xazinasidagi birliklardan hind-evropa tillarida, xususan, farmatsevtika sohasi amaliyotida keng foydalaniladi. Oʻzbek tiliga oʻzlashayotgan koʻplab inglizcha soʻzlarning manbasi lotincha hisoblanadi. Biroq ularning bugungi pragmatik maʼnosi lotin tilidagi etimologik maʼnosidan farq qilishi tabiiy. Shunga koʻra, tadqiqotchilarning oʻzbek tiliga oʻzlashayotgan shunday soʻzlarning manbasini shartli ravishda inglizcha oʻzlashma sifatida talqin etishlari ham toʻgʻri yondashuvdir. Oʻzlashma soʻzlarning manbasini koʻrsatishga boʻlgan rang-barang yondashuvlar ruscha oʻzlashma soʻzlar lugʻatlarida ham, oʻzbekcha lugʻatlarda ham, hatto maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida ham uchrab turadi.

*Imij* soʻzining kelib chiqishi inglizcha *image*, lotincha *imago* — *timsol*, *koʻrinish* tushunchalari asosida shakllangan. Oʻzlashmaning “shaxs, hodisa, narsaning ommalashtirish, reklama qilish kabi maqsadlarda odamlarga hissiy-ruhiy taʼsir koʻrsatishni koʻzlab shakllantiriladigan qiyofasi”; “targʻib qilish vositalaridan biri” (9, 129) maʼnolari oʻzbek tilida ham, ingliz tilida ham uygʻun maʼnoga ega. Soʻzning koʻp maʼnoliligini hisobga olmaganda, manba tildagi asos maʼno soʻz oʻzlashtiruvchi tilda semantik oʻzgarishga uchramagan. Ingliz tilida bu soʻz polisemantik xususiyatli birlik hisoblanadi. Oʻzbek tilida esa uning turli vaziyatlarda qoʻllanishi oʻzlashmaning semantik hajmi kengayayotganidan darak beradi.

Koʻrinadiki, *foyil*, *bonus*, *imij* soʻzlarining lugʻatdagi maʼnosi asos maʼnosiga bevosita aloqador va keskin oʻzgarish kasb etmagan.

Oʻzlashma leksemalarning oʻzbek tili leksikasiga qay darajada singganligi uning uslublar doirasida qoʻllana olish imkoniyatiga qarab ham belgilanadi. Mazkur holat oʻzlashma soʻzlarning leksikaga singish darajasini koʻrsatuvchi oʻziga xos bosqichdir. Kuzatishlar jarayonida *imij* leksemasining kitobiy uslubdagi imkoniyatlari yetarlicha shakllanmaganligi aniqlashadi. Soʻzlashuv jarayoni esa buning aksi boʻlib, sanʼatkor va yoshlar nutqida leksemaning qoʻllanish darajasi anchayin faol ahamiyat kasb etgan.

**Mustaqillik davri oʻzlashmasi boʻlgan *karaoke* «oldindan yozib olingan musiqaga kuylash imkonini beruvchi elektron qurilmadan foydalanish yoki qurilmaning oʻzi» tushunchasini ifodalaydi. *Karaoke* yaponcha qoʻshma soʻz shaklida boʻlib, manba tilda “quruq, yolgʻiz orkestr” maʼnolarini ifodalaydi. Ommaviy qoʻshiqlarni kuylashni ifoda etadigan mazkur oʻzlashma “koʻngil ochish maskani” denotativ maʼnosiga ham ega. Bu soʻzning etimologik maʼnosi ham, oʻzbek tilidagi atash maʼnosi ham deyarli oʻzgarmagan. Soʻz manba tilda muayyan tushuncha asosida shakllanganidan buyon oʻzining semantik xususiyatini deyarli oʻzgartirmay kelmoqda.**

Qisqa tasvirli, badiiy lavhalari saralab olingan kadrlar ketma-ketligini ifodalaydigan klip oʻzlashmasi oʻzining *inglizcha etimologik maʼnosi* clip — uzib, yulib olmoq; kesib qoʻymoq tushunchalaridan uzoqlashmagan. Uni ham asos maʼnosida qoʻllanuvchi leksemalar sirasiga kiritish mumkin. Hozirgi kunda soʻzlashuv uslubida keng qoʻllanayotgan videoklip, videorolik oʻzlashmalari ham aynan shu mazmunda ishlatiladi.

Oʻzbek tili jonli soʻzlashuv nutqiga raqamli media motivida faollashgan *intriga* (fr. *intrigue* < lot. *intricare* — adashtirmoq, yoʻldan urmoq) soʻzi fitna, qutqu, *ters tashviqot*, hiyla-nayrang, *gij-gijlash* paradigmaları bilan oʻzaro maʼnodoshlik munosabatini hosil qila oladi. Mazkur leksemaning sememasini haddan ziyod yashirin, gʻarazli harakat koʻrinishida shakllantirish mumkin. Uning tarkibidagi gʻarazli harakat uzvi oʻz semantik guruhiga mansub leksemalar sememalari uchun integral sema vazifasini bajargan.

**Ingliz tilida yozgi uy referentini ifodalovchi *kottej* (cottage) soʻzi oʻzbek tili lugʻat boyligiga allaqachon muqim holatda oʻzlashib boʻldi. Angliyada fermer xoʻjaligi ishchilari koʻproq yozda mehnat qilgani sababli ham oʻzlashma dehqon uyi tushunchasini ham ifodalaydi. Umuman olganda, *kottej* “hajmi katta boʻlmagan, asosan, bir oilaga moʻljallangan turar joy” maʼnosiga ega. Muhimi, undagi turar joy semasi oʻz vazifasini yoʻqotmagan.**

Kuzatilgan tahlil natijalariga koʻra, *intriga*, *kottej* oʻzlashmalarini ham asos maʼnosida qoʻllanuvchi leksemalar qatoriga kiritish oʻrinli boʻladi. Bundan tashqari, mustaqillik davrida oʻzlashgan *dizayn*, klon,



*kolorit*, *karting*, *broyler*, *broker*, *buklet* kabi soʻzlar haqida ham shunday xulosaga kelish mumkin. Ular manba tilning oʻzida ham aynan shunday tushunchani ifodalay oladi. Faqat tadqiqotchidan ularning lugʻatdagi genetik maʼnosini etimologik maʼno bilan qorishtirmaslik talab etiladi.

Oʻzlashmalar asos maʼnoda qoʻllanishi jihatidan oʻrganilar ekan, ular muayyan sistema ichida oʻrni bilan etimologik maʼnoni bevosita ifoda etishi yoki maʼno ixtisoslashuvi, baʼzan maʼno torayishi jihatidan oʻzaro farqlanishi mumkin.

Etimologik maʼnoni bevosita ifoda etuvchi leksemalar soʻz qabul qiluvchi til egalari uchun ham oson qabul qilinadi: **xoll** (*inglizcha* **hall** — **zal**) — **jamoat binolarida, xususan, mehmonxona, teatr va boshqa joylarda dam olish, kutish uchun moʻljallangan xona**; **keys** (*inglizcha* **case** — **portfel**) — diplomatmonand portfel; **zombi** (*inglizcha* — **zombi(e)**) < *afrika tillari* — *sehr-jodu bilan tiriltirilgan murda*) — tafakkur qobiliyati yoʻq, shaxsi va erkidan mosuvo kishi, manqurt; **broyler** (*inglizcha* **broiler** — goʻshtga boqiladigan joʻja) — goʻshtdor joʻja, *bifshteks* (*inglizcha* — **beefsteak**: **beef** — mol goʻshti, goʻsht, **steak** — qiyma, parcha) — qovurilgan mol goʻshti; **monitoring** (**monitor** + *inglizcha* -ing — harakat nomi qoʻshimchasi: kuzatish, nazorat qilish) — maqsadli ravishda kuzatib borish kabilar. Keltirilgan misollarning etimologik maʼnosi bilan genetik maʼnosi oʻzaro mutanosib xarakterga ega.

Maʼno ixtisoslashuvi, torayishiga koʻra, asos maʼnoda qoʻllanuvchi leksemalar esa (manba til tadqiqida) koʻproq xalq tilidagi soʻzlarning ilmiy uslubga xoslanishi bilan bogʻliqdir. Quyida ularning sohalar kesimida ixtisoslashishi bilan bogʻliq maʼnolarini kuzatamiz:

**kreking** (*inglizcha* **cracking** — parchalanish, ajralish] soʻzi *texnika sohasi bilan bogʻliq*: neft va uning tarkibiy qismlarini kimyoviy usulda qayta ishlash jarayoni;

**lizing** (*inglizcha* **lease, leasing** — ijara; ijara shartnomasi; ijaraga bermoq) soʻzi moliya sohasi bilan *bogʻliq*: ishlab chiqarish vositalari yoki boshqa tovarlarni uzoq muddatli ijaraga berish yoki olish;

**trening** (*inglizcha* **training** — oʻrgatish, tarbiyalash, mashq qildirish) soʻzi taʼlim jarayoni bilan *bogʻliq*: bilim, koʻnikma va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan faol taʼlim usuli;

**kliring** (*inglizcha* **clearing** — hisob-kitob qilish) soʻzi moliya sohasi bilan *bogʻliq*: davlatlar, kompaniyalar, tashkilotlarning naqd pulsiz hisob-kitob tizimi;

**pas** (*inglizcha* **pass** — uzatmoq) soʻzi sport sohasi bilan *bogʻliq*: sport oʻyinlarida oʻyinchining oʻz jamoadoshiga toʻp (shayba)ni uzatishi;

**xolding** (*inglizcha* **holding** — egalik qiluvchi, ega boʻlgan) soʻzi *iqtisod* sohasi bilan *bogʻliq*: oʻzga firmalarni nazorat qilish va boshqarish uchun ularga tegishli aksiya nazorat paketlarini sotib olib egalik qilish;

**bodibilding** (*inglizcha* **body-building** — tana tuzilishi) soʻzi sport sohasi bilan *bogʻliq*: muskullarni rivojlantirish maqsadida trenajyor uskunalari orqali amalga oshiriladigan jismoniy mashqlar tizimi kabi.

**Bundan tashqari**, *inglizcha* **sayt soʻzi** *site* — oʻrin, joy maʼnosini ifodalaydi, uning genetik maʼnosi esa “Internetda foydalanuvchiga vizual maʼlumotlarini shakllantirish uchun beriladigan joy” izohiga ega.

**Rasmiy uslub jarayoniga kirib borgan va faol qoʻllanishda boʻlgan reglament** (*fr.* **reglement** < *lot.* **regula** — tartib, qoida) leksemasi oʻzbek tilining izohli lugʻatida “1. Yigʻilish, majlis, kengash kabilarni olib borish, oʻtkazish tartibi. 2. Biror davlat organi, muassasa, tashkilot va sh.k. ning faoliyat tartibini belgilovchi nizom va qoidalar majmui. 3. Xalqaro

kongresslar va konferensiyalar tomonidan qabul qilingan ba'zi hujjatlarning nomi" ma'nolariga ega. Leksemaning polisemantik xususiyati manba tilda so'z ifodalaydigan referentlar bilan aloqadorlikda shakllangan. Soddaroq qilib aytganda, hosila ma'no yangi leksikada ko'chma ma'no ko'rinishida yoki manba tildagi tushunchalaridan ayri holatlarda paydo bo'lmagan. Xulosa qilib aytganda, **reglament leksemasi sememasini** biror faoliyat yoki jarayonning "tartibini belgilovchi qoida" ko'rinishida ko'rsatish mumkin. Lug'atdagi bosh ma'no uchun esa, yuqorida aytilgan birinchi ma'noga analogik tarzda, "yig'ilishda nutq jarayoni uchun belgilanadigan vaqt me'yori" tushunchasi yetakchilik qiladi.

Istiqlol davri o'zlashmalari orasida *shou, sprint, sprinter, trek, broker, konsalting kabi turli sohalarga oid leksemalar ham mavjudki, ularning tahlili va ilmiy talqini leksikada* asos ma'noda qo'llanuvchi leksemalarning ko'plab uchrashi haqida tasavvur uyg'otadi.

**Umuman olganda, o'zlashmalardagi** asos ma'noda qo'llanuvchi leksemalarni ichki guruhlar asosida o'rganish mumkin. Biroq ularga umumiy planda qaraganda, etimologik ma'noga aloqadorlik anchayin seziladi. Bu aloqadorlik so'z ifodalaydigan tushuncha bilan bog'liq bo'lib, referentning tarixiy taraqqiyot davomida keskin o'zgarishlarga asoslanmasligi bilan belgilanadi.

Asos ma'nosi qisman o'zgargan leksemalar o'z etimologik ma'nosiga bevosita emas, balki bilvosita bog'lanadi. Bu bog'lanish so'z genetik (hozirgi) ma'nosini etimologik ma'noga bog'lanishi uchun leksema ma'no hajmi taraqqiyotidagi o'zgarishlarga asoslanadi. Garchi so'zning bugungi bosh ma'nosi o'zi asoslanadigan etimologik ma'noni u yoki bu darajada takrorlamasa-da, ular orasidagi mushtaraklikni mantiqiy jihatdan tiklab olish mumkin. Masalan, **pikap so'zining inglizcha asosi** pick-up — < pick up — *ko'tarish* tushunchasida bo'lib, "yuk va odam tashishga ixtisoslashgan ochiq kuzovli avtomobil" ma'nosini bildiradi. So'z etimologiyasidagi "ko'tarish" tushunchasining lug'atdagi genetik ma'nosida aks etgan "tashish" referentining o'zaro integratsiyasi mavjud. Aynan ana shu analogiya asosida so'zning ma'no hajmi qayta shakllangan. Bu kabi asos ma'nosi qisman o'zgargan birliklarni boshqa o'zlashmalar tahlilida ham kuzatish mumkin.

Masalan, *inglizcha* multimedia (multimedia) so'zi kelib chiqishiga ko'ra multi-... — ko'p hamda *lotincha* media, medium — o'rta, markaz tushunchalariga asoslangan bo'lib, so'zning bugungi lug'atdagi "axborot uzatishning texnologik va rang-barang vositalari" bosh ma'nosi ham etimologik ma'noga aloqadorlikda shakllangan. Faqat ular orasidagi aloqa o'ziga xos murakkabliklarga asoslangan.

*Bluming* o'zlashmasi o'zbek tilida "temir yoyadigan prokat stan" ma'nosiga ega. Uning *inglizcha* *blooming* — *quyma po'lat xomashyo* asos ma'nosiga aloqadorlikni ilmiy tahlillar natijasida shakllantirish mumkin. *Bluming*ning texnik termin sifatida shakllanishi o'z etimologik ma'nosiga nisbatan yaqinlikni kamaytirgan. Qolaversa, *bluming*dagi "cho'kichlanuvchi qattiq metall" referenti "metall chig'irlydigan murakkab mexanizm" tushunchasiga o'zgargan. Bu esa o'zlashmani asos ma'nosi qisman o'zgargan leksemalar guruhiga kiritish uchun zamin yaratgan.

Asos ma'nosi qisman o'zgargan leksemalar tadqiqi jarayonida quyidagi leksemalarning etimologik va genetik ma'nolarini muqoyasa etish orqali o'zaro aloqadorlik, mushtaraklikni tiklash mumkin:

*triller* — *inglizcha* *thrill* — *hayajonlanmoq* ma'nosi — o'zlashmaning lug'atdagi tushunchasi "murakkab syujetli, detektiv film yoki badiiy asar";

*spiker* — inglizcha *speaker* soʻzlovchi maʼnosi — oʻzlashmaning lugʻatdagi tushunchasi “parlament yoki palata raisi”;

*briefing* — inglizcha *briefing* yoʻl-yoʻriq (brief — qisqa; qisqacha xulosa) maʼnosi — oʻzlashmaning lugʻatdagi tushunchasi “rasmiiy shaxslarning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida qisqa xulosalari bildiriladigan uchrashuvi” kabilar.

Asos maʼnosi qisman oʻzgargan leksemalar manba tildagi lugʻaviy maʼnosidan toʻla uzilmagan va uni yetarlicha saqlab qololmagan birliklardir. Aniqroq aytganda, bunday leksemalar asos maʼnosida qoʻllanuvchi leksemalar va asos maʼnodan uzilgan leksemalar orasida oraliq uchinchi vazifasini bajaradi.

Bugungi kun oʻzlashmalarining motivatsion omili zamonaviy innovatsiyalar hisoblanadi. Shunday innovatsiyalardan biri, bu — internet tarmogʻi orqali kriptovalyuta (raqamli / virtual valyuta) topish imkoniyati boʻlib, aynan shunday imkoniyatlar *mayning* orqali amalga oshiriladi. *Mayning* inglizcha (*mining* — *konchilik, togʻ-kon sanoati*) soʻz boʻlib, bu termin “internet tizimiga ulangan kompyuterlarning maxsus dasturlar vositasida kriptovalyuta ishlab topishi jarayoni”ni ifodalaydi. Koʻrinadiki, bu leksema oʻzining etimologik maʼnosiga aloqador emas.

Lokaut — siyosiy tushuncha ifodalaydigan **termin** va u inglizcha lock-out — eshikni yopmoq birikmasi asosida shakllangan, genetik maʼnosi “korxona faoliyatini toʻxtatib qoʻyish va ishchilarni ommaviy ravishda ishdan boʻshatish”ni anglatadi. Umuman olganda, asos maʼnosi qisman oʻzgargan leksemalar alohida guruh sifatida shakllangan va ularning tadqiqini *vaucher, velotrek, trauler, xaker, sheyping, charter, pikirovka* kabi misollar tahlilida ham davom ettirish mumkin.

Asos maʼnodan uzilgan leksemalar manba tildagi etimologik maʼnosidan ancha yiroqlashgan boʻlishi bilan birga, ular orasidagi oʻzaro munosabat maxsus etimologik tahlillar natijasidagina aniqlashadi. Odatda, oʻzlashmalarni qabul qiluvchi til egalari uchun bunday talqinlar murakkab sanaladi. Masalan, fransuzcha *piket soʻzi etimologik jihatdan qoziqcha* maʼnosini ifodalaydi. Uning bugungi kunda harbiy sohada “kamsonli soqchilar otryadi” yoki “ish tashlash yuz bergan joyda qorovullik qilib yuruvchi ishchi guruh”, bundan tashqari, *siyosiy termin sifatidagi* “odatda hukumat idoralari oldiga biror narsadan norozilikni ifodalash uchun qoʻyiladigan vakillar guruhi” tushunchalariga aloqadorligi sezilmaydi.

Shuningdek, inglizcha *belting* soʻzining tarixiy maʼnosi *belting* — *harakatlantirish tasmasi* maʼnosini anglatga, oʻzlashmaning nutqiy maʼnosi “transportyor, elevator lentolari va rezinalangan qayishlar tayyorlanadigan ogʻir va pishiq gazlama”ni ifodalaydi. Bundan tashqari, **bullitning etimologiyasi** inglizcha *bullet* — oʻq maʼnosini bersa, bugungi kun lugʻatidagi genetik maʼnosi *sportning xokkey sohasida* “gol boʻlishi ehtimoli bor vaziyatda shaybani egallagan xokkeychini qoʻpol ravishda toʻxtatib qolish uchun belgilanadigan jarima shayba”ni aks ettiradi.

Asos maʼnodan uzilgan leksemalar mustaqillikkacha oʻzlashgan soʻzlar amaliyotida ham koʻp uchraydi. Ular nafaqat etimologlar, balki “soʻzning magʻzini chaqa oladigan” zukko til egalari uchun ham allaqachon qiziqarli mavzuga aylanib ulgurgan. Masalan, oʻzbek halqi tilida forscha soʻzlar hisoblangan *hamshira* soʻzining “birga sut emishgan”, milk soʻzining “tirnoq ostidagi oq qism”, chil-chil soʻzining “qirqta-qirqta”, *zimiston* soʻzining “qish” maʼnolari etimologik maʼnosidan uzoqlashgan. Ular tilning tarixiy taraqqiyoti sharoitida kengayish, torayish, nom



ko'chishlar asosida ayrim o'zgarishlarga uchragan. Bundan tashqari, o'zbek tili leksikasida ombur leksemasi faollashishi ta'sirida ikkinchi forscha so'z — *juftak (juftagini rosladi)* ning “kichik ombir”ni ifodalash uchun ehtiyoj bo'lmay qolgan. Yoki xalq o'zi uchun yengil bo'lgan tilda (shevada) — okkazonal ma'noda “kampiroviz” (kampirog'iz / kampirning og'zi) so'zini yasab olgan.

Bunday misollarni boshqa til o'zlashmalari misolida ham davom ettirish mumkin. *Ingliz tilidan o'zlashgan kenguru so'zining, aslida*, Avstraliya aborijenlari tilida — gapingizga tushunmadim, inglizcha *volapyuk* so'zining *world — dunyo, speak — gapirmoq: dunyo tili* ma'nolari asos ma'nosidan ancha uzoqlashgan va ularni aniqroq tushunish etimologik tahlillar talab qilinadi.

Ma'lumki, muayyan masofadan turib simsiz shaklda qurilmalar o'rtasidagi axborotlarni uzatish texnologiyasi *blutus* nomi bilan yuritilyapti. Inglizcha *blutus (bluetooth)* so'zining etimologiyasi *ko'k tish* ma'nosida bo'lib, uning nominatsiya tarixi uzoq davrlarga borib taqalsa-da, innovatsiyaning o'zi yaqindagina kashf etilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Axborot texnologiyalari atamaları orasida *bot* (inglizcha *bot* “robot” so'zining qisqartmasi, *chex tilida* — “robota” — “erksiz mehnat”) o'zlashmasi mexanik bajarilishida ko'p vaqt talab etadigan amallarni yoki turli tipdagi amallarni avtomatik bajarishga ixtisoslashgan dastur ma'nosiga ega. Mazkur leksema ilmiy tildan umumxalq tili so'zlashuv uslubiga tez va osongina ko'chdiki, bugungi kunda smartfon va planshetlarining ishlash jarayonini turli tipdagi botlar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Umuman olganda, hozirgi o'zbek tilida *bot* so'zi ifodalaydigan pragmatik ma'noning manba tildagi asos ma'nosiga aloqadorligi yo'qolgan.

*Treyler* so'zi inglizcha *tortmoq, sudramoq, izidan ergashmoq* ma'nolarini ifodalaydi. O'zlashma so'z ifodalaydigan “film (teledastur, radioeshittirish va shu kabilar)ning voqelar rivojini jozibador va qisqa kadrlar asosida shakllantiradigan videorolik” tushunchasining asos ma'nosida qo'llanuvchi leksemalar yoki asos ma'nosi qisman o'zgargan leksemalar sememasiga yaqinligi sezilmaydi.

*Blokcheyn* termini ham *mayning, kriptojejing, token, bitkoyn* so'zlari qurshovida kirib keldi va ular *kriptovalyuta* leksemasi atrofida paradigmatic munosabat hosil qildi. Aniqrog'i, *kriptovalyuta* leksemasi qurshov leksemalarga nisbatan o'zining markaz leksema sifatidagi maqomini kengaytirib bormoqda. Uning ochiq sistemasiga muayyan neologizmlarning kelib qo'shilishi stixiyali tarzda muqobilsiz leksikaning to'ldirib borilishini ham kun tartibiga chiqaryapti.

*Blokcheyn* inglizcha so'z bo'lib (*blockchain / block chain*), “blokklar zanjiri”, “zanjirli mexanizm” tushunchalarini ifodalaydi. *Blokcheyn*, asosan, kriptovalyuta ishlab topish va kriptoaktivlarni tranzaksiya qilish maqsadida qo'llanadigan texnologiya hisoblanadi. Kriptovalyuta ochiq internet tarmog'idagi murakkab hodisa bo'lgani sababli ham uni himoyalash uchun *blokcheyn*ga kuchli ehtiyoj sezilgan. Natijada shu nomdagi texnologiya ishlab chiqilgan. Umuman olganda, *blokcheyn* o'zlashmasining nominatsiyasi murakkab jarayon hosilasi bo'lib, uning asos ma'noga bog'lanishi o'ziga xos ekstremal sharoitlarni talab etadi. Shunga ko'ra, bu o'zlashmani transformatsion darajalanish holatining asos ma'nodan uzilgan leksemalar qatorida o'rganish to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq neologizmlari boshqa faktorlarga qaraganda o'z ustunligi bilan ajralib turadi. Yoshlar nutqining kundalik muloqot so'zlari qatoridan o'rin olayotgan bunday so'zlar tez muomala

jarayoniga kirayotgani bilan ham ahamiyatlidir. Ular sirasiga *hayp*, *xit*, *mem*, *heshteg*, *trend*, *layk*, *layfhak*, *IMHO*, *trend*, *respekt*, *fleshmob* kabilarni keltirish mumkin.

Masalan, “tendensiya”, “yo‘nalish” ma‘nolarini ifodalaygan inglizcha *trend* (2, 406) (*trend*) so‘zi o‘zbek tiliga “jamoatchilik fikrining yo‘nalishi”, “modadagi hozirgi uslub” tushunchalari bilan o‘zlashdi. Ijtimoiy tarmoqlar doirasida esa o‘zlashma “mavzu muhokasining jamoatchilik tomonidan avj pallaga chiqishi” kontekstida yoshlar nutqiga xoslanib qoldi. Leksemani ham bugungi semantik xususiyatidan kelib chiqib, asos ma‘nodan uzilgan leksemalar qatoriga kiritish mumkin.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *terminal* (ingl. terminal < lot. terminals — oxirgi, so‘nggi; oxiriga tegishli) so‘zi polisemantik so‘z sifatida izohlangan. Lug‘atlarda bu kabi so‘zlar manbasining lotincha yoki inglizcha so‘z sifatida ko‘rsatilishi tabiiy holga aylanmoqda. Hozirgi davr neologizmlarining dunyo tillariga ingliz tili orqali o‘zlashayotgani va tillararo ommalashayotgan neologizmlarning ingliz tilidagi so‘z hajmi kengayishiga asoslanayotgani ham o‘zlashmalar manbasiga yondashuvni o‘zgartirmoqda.

*Terminal* leksemasining to‘rt ma‘nosidan ikkitasida neologizmlik xususiyati mavjud. Mazkur so‘z istiqlolgacha bo‘lgan davrning imlo va izohli lug‘atlariga kiritilmagan bo‘lsa-da, termin yoki iste‘mol darajasi cheklangan so‘z sifatida uning “portning konteynerli va bog‘lama yuklarni saqlash va qayta ishlashga mo‘ljallangan qismi” hamda “katta miqdordagi yuk, narsa-buyum vaqtincha, mavsumiy saqlanadigan ombor” ma‘nolari mustaqillikkacha bo‘lgan davr leksikasi uchun tushunarli edi. Istiqloldan so‘ng esa *texnik* termin tushunchasidagi “hisoblash sistemasi tarkibiga kiruvchi, axborotlarni sistemaga kiritish va undan chiqarib olish uchun mo‘ljallangan chetda turuvchi, sirtqi moslama (kompyuterda ishlaganda, monitor, sichqoncha, klaviatura kabilar terminal hisoblanadi)” va “plastik kartochkalar yordamida ishlaydigan, turli hisob-kitob va to‘lovlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan elektron qurilma” ma‘nolari o‘zlashdi. Natija so‘z oluvchi til leksikasiga mazkur tushunchalar uchun yangi nom tanlanmasdan *terminal* leksemasining ma‘no hajmiga biriktirildi.

Bundan tashqari, tibbiyot sohasida leksemaning inson hayoti so‘nggi bosqichidagi “hayot bilan o‘lim orasidagi behushlik holati” tushunchasi *terminal holat* birikmali termini bilan beriladi. Leksema etimologik ma‘nosidagi “oxirgi” referenti aynan mana shu birikmali terminga aloqador hisoblanadi. Biroq *terminal holat* birikmali termini o‘zbek tilining izohli lug‘atida ko‘rsatilmagan. Shular asosida aytish mumkinki, *terminal* so‘zining etimologik ma‘nosi lug‘atda qayd etilgan to‘rt ma‘noga muqoyasa qilinsa, uni asos ma‘nosida qo‘llanuvchi yoki asos ma‘nosi qisman o‘zgargan leksemalar qatorida o‘rganib bo‘lmaydi.

Mustaqillikdan keyin o‘zlashgan oshxona buyumlari nomi salmoqli miqdorni tashkil etadi. Tilshunos R. Sobirova o‘zining bevosita mavzu tadqiqiga bag‘ishlangan ishida uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini leksik tizimda alohida mikromaydon (lug‘aviy-ma‘noviy guruh) sifatida belgilaydi va shartli ravishda olti guruhga bo‘lib o‘rganadi, bular: uy jihozlarini ifodalovchi leksemalar; ro‘zg‘or yumushlariga oid asbob-anjomlarni ifodalovchi leksemalar; oshxona jihoz va buyumlarini ifodalovchi leksemalar; bolalar uchun kerakli jihoz va buyumlarni ifodalovchi leksemalar; maishiy ehtiyoj uchun kerakli jihoz va buyumlarni ifodalovchi leksemalar; uy-ro‘zg‘or buyumlari qismlarini ifodalovchi leksemalar (8, 25). Uning o‘rganishlariga ko‘ra, o‘zbek tili uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasida

tojikcha o'zlashmalarning miqdori arabcha o'zlashmalarga qaraganda salmoqliroq. Buning sababi arab xalqlarning turmush tarzi o'zbek xalqi bilan bevosita yaqin emasligi bilan asoslanadi.

Oshxona jihoz va buyumlarini ifodalovchi leksemalar sirasiga kiruvchi *toster* o'zlashmasi inglizcha "qovurilgan yoki quritilgan non bo'laklari (tostlar) tayyorlaydigan anjom" ma'nosiga ega. O'zlashmaning manba tildagi asosi — *tost* (toast < *lot.* panis tostus) so'zi ingliz tilida "qovurib qizartirilgan non" va "qadahlardagi ichkilikni ko'tarish oldidan bildiriladigan istak so'z" referentlarini ifodalaydi. Leksema uchun asos bo'lgan etimologik ma'no va bugungi kun lug'atidagi genetik ma'no orasida uzviylik sezilmaydi.

*Toster* so'zi o'zbek tili imlo yoki izohli lug'atlariga kirmagan bo'lsa-da, jonli xalq tilida ommalashgan leksemalar qatoridan joy olgan. Bu kabi so'zlarni lug'atlarda aks ettirilishi juda ham muhim. Aks holda, bugungi kun xalq tili bilan lug'atlar orasida uzviylik yo'qoladi. Aslida, zamonaviy lug'atlarning ahamiyati davriga nisbatan zarur birliklarni o'zida aks ettira olishi bilan ham belgilanadi. Bundan tashqari, leksikada uning o'rnini bosuvchi o'zga so'z mavjud emas. Leksik lakunalarni tildagi ehtiyojiga qarab o'z o'rnida to'ldirib borish har doim ham leksika uchun manfaatli bo'lgan. Umuman olganda, asos ma'nodan uzilgan leksemalar qatorini *trest*, *topik* kabi ko'plab so'zlar misoli tahlilida ham davom ettirish mumkin.

Globallashuv jarayoning "aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi sharoitida *parkovka* so'zi jonli so'zlashuvda ham, ijtimoiy tarmoq doirasida ham tez-tez qo'llanilayotgani seziladi. Aslida, bu so'z "avtomobillarning to'xtash joyi", "ularga vaqtincha saqlash xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanadigan maskan" tushunchasiga ega va so'zlashuv tilida uning leksikasiga to'la singib ketmagan *stoyanka* varianti ham mavjud. *Stoyanka*, *avtostoyanka* kabi birliklar tilda varvarizm maqomida, ularga alternativ shaklda yaqindagina paydo bo'lgan *parkovka* so'zining leksikadagi mavjud statusiga ham munosib baho berish zarur.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'zbek tilida mavjud imlo va izohli lug'atlarda *stoyanka*, *avtostoyanka*, *avtoturargoh*, *parkovka* kabi so'zlarning birortasi o'z ifodasini topmagan. Bular orasida so'zlashuv jarayonidagi eng faoli *stoyanka* birligi bo'lsa, *avtoturargoh* publitsistik, *to'xtash joyi* esa rasmiy uslublarda ishlatilayotgani kuzatildi. *Parkovka* o'zlashmasi esa so'nggi yillari ularning muqobili yoki ma'no hajmi ularga nisbatan toraygan so'z sifatida shakllandi. *Stoyanka*, *parkovka* so'zlari o'zbek tiliga rus tili orqali o'zlashgan bo'lsa-da, *parkovka* o'zlashmasining o'zi rus tiliga inglizcha *parking* (*avtomobillar to'xtash joyi*) so'zi motivida shakllangani e'tirof etiladi (5, 224).

*Parkovka* o'zlashmasi rus tili lug'at boyiligida ham so'nggi yillari paydo bo'ldi va uning ma'nosi *avtostoyanka* birligidan farqlandi. Aniqrog'i, *parkovka* so'ziga "turli funksional maqsadlardagi obyektlar tashrif buyuruvchilariga tegishli avtotransport vositalarining to'xtash joylarida vaqtincha turishi" (10) ko'rinishida izoh berilgan. Shuningdek, uning davlat idorasi, supermarket, savdo markazi, aeroport va vokzallar yaqinida joylashgan bo'lishi, avtotransportning qisqa muddatga qoldirilgani uchun haq to'lanmasligi, mashinani uzoq vaqt qoldirilishiga ruxsat etilmasligi kabilar ham o'ziga xos xususiyatlari sifatida ko'rsatiladi.

**Xulosa.** So'nggi yillari paydo bo'lgan hamda xalq tilida, aniqrog'i, so'zlashuv jarayonida faol birliklarning keng ommalashishi kuzatilyapti. Ularning bu jarayonda tez ommalashishi esa adabiy tilga, o'zbek tilining lug'at fondidan munosib o'rin olish ehtimolini oshiradi.

Yangi davr o'zlashmalari, o'tgan yillar davomida, o'ziga xos semantik evolutsiyani boshidan kechirdi. Bu, asosan, ma'no kengayishi, ma'no torayishi va boshqa turli hodisalar bilan bog'liqdir. Mazkur hodisalar o'zlashma lug'aviy ma'nosining sifat va miqdor jihatlaridan o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Istiqlol davri o'zlashmalari, asosan, neologizm xarakterida bo'lib, terminlarning umumiste'mol leksikaga aylanishi bilan ham, xalq turmush tarzida paydo bo'layotgan innovatsiyalarning nomi sifatida ham namoyon bo'lyapti. Ularning ommalashishiga ko'proq internet, u bilan bog'liq ijtimoiy tarmoq va turli bloglar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqillik davri o'zlashmalarining transformatsion darajalanish tadqiqi o'ziga xos ahamiyatga ega. Ularni asos ma'noda qo'llanuvchi, asos ma'no qisman o'zgargan hamda asos ma'nodan uzilgan leksemalar ko'rinishida farqlab o'rganish o'zlashma so'z ma'nosining umumiy talqini, etimologik ma'noning genetik ma'no shakllanishidagi roli kabi muammolar yechimi uchun muayyan xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф.А. Арабизмы в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. — Ташкент, 1946. — 143 с.
2. Алабутина Ю. В., Шагалова Е. Н., Глинкина Л. А. Новый толковый словарь русского языка для всех, кто хочет быть грамотным. — Москва: АСТ, 2014. — 639 с.
3. Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. — Ташкент: Фан, 1985. — 152 с.
4. Isakova N. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so'zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili ("Xalq so'zi" gazetasi materiallari asosida): Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. — Samarqand, 2020. — 52 b.
5. Комлев Н.Г. Словарь иностранных слов. — М.: ЭКСМО, 2006. — 669 с.
6. Mirtojiev M. O'zbek semasiologiyasi. —T.: Mumtoz so'z, 2010. — 288 b.
7. Qo'ziyev U. O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar tadqiqi: Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD)...dis. aftoref. — Farg'ona, 2018. — 52 b.
8. Sobirova R. Uy-ro'zg'or buyumlari leksikasi mikromaydonining lingvokulturologik talqini: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. — Toshkent, 2021. — 58 b.
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. Zebunniso — Konigil. Aminov M., Daminov T., Dolimov T. va b. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. — 682 b.
10. Словарь-справочник терминов нормативно-технической документации.

[https://normative\\_reference\\_dictionary.academic.ru/49261/Парковка](https://normative_reference_dictionary.academic.ru/49261/Парковка)

### References

1. Abdullayev F.A. *Arabizmi v uzbekskom yazyke* (Arabisms in Uzbek), candidate's thesis, Tashkent, 1946, 143 p.
2. Alabugina Y. V., Shagalova E. N., Glinkina L. A. *Novyi tolkovyi slovar' russkogo yazyka dlya vseh, kto khochet byt' gramotnym* (A New

Explanatory Dictionary of the Russian Language for Everyone Who Wants to be Literate), Moscow: AST, 2014, 639 p.

3. Gulyamova N. *Russkiye leksicheskiye zaimstvovaniya v uzbekskom yazyke* (Russian lexical borrowings in the Uzbek language), Tashkent: Fan, 1985, 152 p.

4. Isakova N. *Mustaqillik yillarida uzbek tiliga kirib kelgan xorijiy suzlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili* (Structural and Semantic Analysis of Foreign Words that Entered the Uzbek Language during the Years of Independence), PhD thesis, Samarqand, 2020, 143 p.

5. Komlev N.G. *Slovar' inostrannykh slov* (Dictionary of Foreign Words), Moscow: EKSMO, 2006, 669 p.

6. Mirtojiev M. *Uzbek semasiologiyasi* (Uzbek Semiotics), Tashkent: Mumtoz suz, 2010, 288 p.

7. Quziyev U. *Uzbek tilidagi izohli lug'atlarda uzlashma suzlar tadqiqi* (Explanatory Word Research in Uzbek Dictionaries), doctor's thesis, Fergana, 2018, 52 p.

8. Sobirova R. *Uy-ruzgor buyumlari leksikasi mikromaydonining lingvokulturologik talkini* (Linguo-Cultural Interpretation of the Microfield of Lexicon of Household Items), doctor's thesis, Tashkent, 2021, 58 p.

5. *Uzbekiston milliy ensiklopediyasi* (National Encyclopedia of Uzbekistan), vol.4, Zebunniso Konigil, Aminov M., Daminov T., Dolimov T. etc. Tashkent: Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002, 682 p.

10. *Slovar'-spravochnik terminov normativno-tekhnicheskoi dokumentatsii* (Dictionary-Reference Book of Terms of Normative and Technical Documentation), available at: [https://normative\\_reference\\_dictionary.academic.ru/49261/Parkovka](https://normative_reference_dictionary.academic.ru/49261/Parkovka)